

Mahalla yoshlari bilan talabalarimiz o'rtasida futbol musobaqasi

Harakatda bo'lgan inson barakatga erishadi. Musobaqalar ham inson salomatligi va sa'yi harakatining belgisi. Institut rektorining 2021 yil 10 maydagi "Institutga birlashtirilgan mahallalarda manzilli ishlarni olib borish to'g'risida"gi 228 A/F-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakultetiga birlashtirilgan "Oqibat" mahallasi raisi bilan kelishgan holda mahalladagi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning institut to'garaklaridan foydalanishga sharoit yaratish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqildi va tasdiqlandi.



Shuningdek, mahallasi yoshlari hamda fakultetimiz 1-kurs talabalari o'rtasida futbol musobaqasi tashkil etildi. Musobaqa yakunida g'olib bo'lgan jamoalar taqdirlandilar. Ushbu sport tadbirlarini tashkil etishdan asosiy maqsad yoshlarimizning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish sport orqali yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy etuk qilib tarbiyalashdan iboratdir.



TIQXMMI matbuot xizmati